



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



ZAMONAVIY OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA TERMINLARDAN FOYDALANISH MASALASI

Q.Ahmadaliyev

Tilshunoslik kafedrasini o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy OAVda terminlardan foydalanish, xorijiy atamalarning moslashtirilishi, tarjima jarayonida yo‘l qo‘yilayotgan xatoliklar va ularning til madaniyatiga ta’siri, jurnalistlarning lingvistik mas’uliyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, misollar, nazariy yondashuvlar va rasmiy manbalar asosida taklif va tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ommaviy axborot vositalari, termin, jurnalistika tili, tarjima, til siyosati, lingvistik norma.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются использование терминов в современных средствах массовой информации, адаптация иностранных терминов, ошибки, допускаемые в процессе перевода, и их влияние на культуру речи, а также лингвистическая ответственность журналистов. Кроме того, на основе примеров, теоретических подходов и официальных источников предлагаются рекомендации и предложения.

Ключевые слова: *средства массовой информации, термин, язык журналистики, перевод, языковая политика, лингвистическая норма.*

Abstract. *This article discusses the use of terminology in modern mass media, the adaptation of foreign terms, translation errors that occur during the translation process and their impact on language culture, as well as the linguistic responsibility of journalists. Additionally, based on examples, theoretical approaches, and official sources, suggestions and recommendations are provided.*

Keywords: *mass media, terminology, journalistic language, translation, language policy, linguistic norm.*

Kirish. Zamonaviy dunyoda axborot vositalari inson hayotining ajralmas bir bo‘lagiga aylangan. Har bir kun, har bir soat, hatto daqiqa sayin insonlar yangiliklar, voqealar, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar haqida xabardor bo‘lishni istaydi. Bu ehtiyojni qondiruvchi eng muhim vositalardan biri — ommaviy axborot vositalari (OAV) hisoblanadi. OAV nafaqat axborot uzatish, balki jamiyatda ijtimoiy fikrni shakllantirish, madaniy qadriyatlarni targ‘ib qilish va xalqni davlat siyosati bilan tanishtirish vositasi sifatida ham faoliyat yuritadi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, OAVning til bilan ishlashi, xususan, terminlarga bo‘lgan munosabati o‘ta dolzarb masalaga aylanadi. Bugungi global axborot oqimi sharoitida har kuni yuzlab yangi tushunchalar, texnologiyalar, ijtimoiy va iqtisodiy hodisalar





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



yuzaga chiqmoqda. Ularni to‘g‘ri nomlash, keng ommaga sodda, lekin aniqlikni yo‘qotmagan holda yetkazish — zamonaviy jurnalistikaning eng katta mas’uliyatlaridan biridir. Ayniqsa, terminlar bilan ishlashda nafaqat til me’yorlari, balki madaniy, kommunikativ va g‘oyaviy jihatlar ham inobatga olinishi lozim.

Terminlar — bu faqatgina so‘z emas. Ular orqasida butun bir tushunchalar tizimi, ilmiy maktablar, texnologik innovatsiyalar, madaniy tajriba va xalqaro kommunikatsiya uslublari yashiringan. Shu bois, jurnalistik matnlarda qo‘llanilayotgan terminlar o‘z mohiyatida aniqlik, ixchamlik va izchillik talab etadi. Tilshunos olima M. Qodirova qayd etganidek: “*Terminlar bu – ilmiy tafakkurning til darajasidagi mujassamidir, har bir atama ortida aniq bir tushuncha va mazmun yotadi*” .

Ammo amaliyotda holat boshqacharoq: jurnalistlar ko‘pincha xorijiy terminlarni bevosita tarjimasiz olib ishlatishadi yoki ularni to‘g‘ri tarjima qilmasdan, kontekstdan uzilgan holda, ommaga havola qilishadi. Bu esa, birinchidan, axborotning to‘g‘ri talqin qilinishiga salbiy ta’sir etsa, ikkinchidan, o‘quvchilarining tushunmovchilikka uchrashi, so‘z boyligining sun’iy aralashmalarga to‘lishiga sabab bo‘ladi.

Bugungi maqola aynan shu muammoga — zamonaviy OAV tilida terminlardan foydalanish masalasiga bag‘ishlanadi. Maqolada terminlarning kelib chiqishi, ularning O‘zbek tilida qo‘llanilishi, tarjima va moslash muammolari, rasmiy institutlar roli, shuningdek, jurnalistlar uchun nazariy-amaliy tavsiyalar xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqola doirasida xorijiy tajribalar, mavjud ilmiy qarashlar va misollar asosida muammo tahlil qilinadi.

Terminlar — muayyan ilmiy yoki kasbiy soha doirasida aniqlik, ixchamlik va tushunarlikni ta‘minlaydigan leksik birliklardir. Ular yordamida murakkab tushunchalar soddalashtirilib, keng ommaga tushunarli tarzda yetkaziladi. Tilshunos olima G. Salomova ta‘kidlaganidek: “Terminlar — tilning ilmiy qatlamini tashkil etuvchi, aniqlik va izchillikni ta‘minlovchi asosiy birliklardir”. Terminologiya til tizimining asosiy qatlamlaridan biri sifatida OAV tilida ham alohida o‘rin tutadi.

Zamonaviy OAV — bu doimiy yangilanayotgan, raqamli va global axborot maydonida faol ishlayotgan tizim bo‘lib, unda IT (axborot texnologiyalari), iqtisodiyot, huquq, tibbiyot, siyosat, ekologiya, sport va boshqa yo‘nalishlarga oid terminlar keng qo‘llanadi. Bu atamalar orqali dunyodagi eng dolzarb muammolar, texnologik yangiliklar va ijtimoiy jarayonlar ommaga tezkor va sodda shaklda yetkaziladi. Biroq, bunday terminlarning noto‘g‘ri tarjimasi yoki kontekstdan uzib ishlatilishi informatsiyaning buzilishiga, tushunmovchilikka va axborot sifatsizligiga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “blockchain” atamasi OAVda ko‘pincha “blockchain”, “zanjirli bloklar”, “raqamli reyestr” kabi shakllarda uchraydi. Har bir variant o‘z kontseptual yondashuviga ega, ammo noto‘g‘ri yoki izohsiz ishlatilganda mazmun anglashilmog‘i mumkin. Yoki “cloud computing” (“bulutli hisoblash”) atamasi ko‘plab jurnalistik materiallarda shunchaki “bulut” tarzida beriladi, bu esa texnologiyaning mohiyatini to‘liq ochib bermaydi. Shuningdek, iqtisodiy terminlarga oid misollarni ham ko‘rsatish mumkin: “inflatsiya”, “GDP” (“yalpi ichki





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



mahsulot”), “fiskal siyosat”, “diversifikatsiya” kabi atamalar aniq va bir xilda qo‘llanilishi kerak. Aks holda, iqtisodiy-huquqiy tahlillarda chalkashliklar yuzaga keladi. Bu holat tilshunoslikda terminlarning standartlashuvi va me’yorlashtirilgan qo‘llanilishi zaruratini yuzaga keltiradi.

Jurnalistlar va tahririyatlar termin tanlashda quyidagi tamoyillarga riosa etishlari kerak:

- Aniqlik: atama ifodalovchi tushuncha ilmiy yoki rasmiy hujjatlarga muvofiq bo‘lishi zarur;
- Konstekstual moslik: termin matn mazmuniga, uslubiga va auditoriyasiga mos bo‘lishi lozim;
- Mahalliylashtirish: atama tarjima qilingan yoki transliteratsiya qilingan bo‘lsa, uning mohiyati albatta izohlanishi kerak;
- Normativ asoslanganlik: Davlat til qo‘mitasi, Tarjima markazi, O‘zFA lug‘atlariga tayanish.

O‘zbekistonda terminlar bilan ishslash masalasi davlat siyosati darajasida tartibga solinmoqda. 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4479-son qarori”da ilmiy-texnik atamalarni davlat tilida shakllantirish, ularni yagona elektron bazaga joylashtirish bo‘yicha vazifalar belgilangan. Bu esa jurnalistlarning terminlardan foydalanish madaniyatini oshirishda muhim huquqiy asosdir.

Xalqaro tajribada esa ko‘plab nashrlar (BBC, CNN, The Economist) o‘z terminologik qo‘llanmalariga ega bo‘lib, bu nafaqat aniqlik, balki OAVning uslubiy yaxlitligini ham ta’minlaydi. Shu bois, O‘zbek OAVlari uchun ham maxsus “Jurnalistik terminlar qo‘llanmasi”ni ishlab chiqish zarurati tug‘ilmoqda.

Zamonaviy OAVda qo‘llanilayotgan terminlar asosan ingliz, rus va boshqa xorijiy tillardan kirib kelmoqda. Bu atamalarni o‘zbek tiliga to‘g‘ri tarjima qilish va madaniy hamda funksional kontekstdan kelib chiqib moslashtirish zarurati tug‘iladi. Tarjima va adaptatsiya jarayonida quyidagi muammolar ko‘p uchraydi:

Ko‘p hollarda xorijiy terminlar so‘zma-so‘z tarjima qilinadi yoki kontekst hisobga olinmaydi. Natijada, ularning mazmuni buziladi yoki noto‘g‘ri talqin qilinadi. Masalan:

- “Fake news” — ko‘pincha “yolg‘on yangiliklar” deb beriladi. Aslida bu termin ataylab noto‘g‘ri ma’lumot tarqatish, ijtimoiy manipulyatsiya strategiyasini anglatadi;
- “Start-up” — ba’zida “yangi loyiha” deb tarjima qilinadi, holbuki u o‘ziga xos texnologik va innovatsion xususiyatlarga ega bo‘lgan kichik biznes shaklini bildiradi.

Ayrim terminlar tarjima qilinmasdan, bevosita xorijiy shaklda qo‘llaniladi. Masalan, “cloud computing”, “deep learning”, “quantum technology” kabi atamalar jurnalistik matnlarda tushuntirilmasdan ishlatilganda, o‘quvchida chalkashlikka olib keladi. Bu OAVning asosiy vazifasi — axborotni sodda va tushunarli shaklda uzatish talabiga zid keladi.

Masalan:

- "Raqamlı texnologiya"





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'ÖYALAR



- ✗ "Digital texnologiya"
- ✓ "Sun'iy intellekt"
- ✗ "AI"

Ushbu holatlar O'zbek tilining boyliklarini e'tiborsiz qoldirib, xorijiy tildagi terminlarning ortiqcha kirib kelishiga zamin yaratadi.

Terminlar ko'pincha bir xil matnda har xil shaklda yoziladi: masalan, "platforma", "platform", "maydoncha" — barchasi bir ma'noni anglatadi, ammo stilistik muvofiqlik yo'q.

Jurnalistlar ko'pincha terminlar ustida ilmiy asosda ishlamasdan, internet manbalaridagi umumiy izohlarga tayanadilar. Bu esa, tilda notejislik va uslubiy beqarorlik keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, terminlarning to'g'ri tarjima qilinishi va ommaga tushunarli shaklda yetkazilishi OAV ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Tarjimada til imkoniyatlarini to'laqonli ishga solish, uslubiy bir xillikni ta'minlash va rasmiy resurslarga tayangan holda ishslash bugungi jurnalistikaning dolzarb vazifasidir.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalarida terminologiyadan foydalanish amaliyoti turli darajada yo'lga qo'yilgan. Ayrim yetakchi OAVlar terminlarni tahririyl siyosat asosida tanlaydi va barqaror ishlatadi, boshqalari esa noaniq yoki chalkash terminlardan foydalangan holda xatolarga yo'l qo'yadi. Bu holat OAVning axborot sifati, ommabopligi va ishonchligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

1. **Terminlarning noto'g'ri ishlatilishi:** Ayrim jurnalistlar terminlarni chuqur tushunmasdan, yuzaki ma'noda qo'llaydilar. Masalan, "virtual haqiqat" va "virtual realistik" atamalari ko'pincha bir-biriga aralashtirib ishlatiladi. Bu esa axborot qabul qiluvchi auditorianing chalkashishiga sabab bo'ladi.

2. **Sinonimlar muammosi:** "Reyting" va "reyting bahosi" atamalari ba'zan bir ma'noda, ba'zan esa turlicha ma'noda ishlatiladi. Natijada matn kontekstida aniq termin tanlanmasligi professional darajani pasaytiradi.

3. **Rus tilidan to'g'ridan-to'g'ri olingan kalkalar:** "Obshestvennoye mneniye" o'rniiga "ijtimoiy fikr" emas, balki "jamoatchilik fikri" iborasi, "massoviy informatsiya vositalari" o'rniiga esa "ommaviy axborot vositalari" degan iboralar tanlanishi kerak. Bu yerda fonetik moslashtirish emas, balki ma'no va uslubiy normaning to'g'riliqiga e'tibor qaratilishi kerak⁶.

O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA), O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqatadigan ayrim onlayn platformalar (masalan, Kun.uz, Daryo.uz) terminlarni aniq tanlash va izohlashda yaxshi amaliyotni shakllantirgan.

Masalan, "chat-bot" termini izohli tarzda: "avtomatlashtirilgan yozishma dasturi (chat-bot)" shaklida keltirilgan. Shuningdek, "kriptoaktiv", "blokcheyn", "sun'iy intellekt" kabi terminlar izohli yoki qavs ichida original shaklida berilib, o'quvchining tushunishini yengillashtiradi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Ommaviy axborot vositalarida terminologiyaning o'rni beqiyos bo'lib, u journalistik matnlarning aniqligi, tushunarligi va ilmiy-tarjimai darajasini belgilovchi asosiy omillardandir. Terminlar orqali murakkab tushunchalar ommaga soddalashtirib yetkaziladi, turli sohalardagi axborotlar esa professional va uslubiy jihatdan talab darajasida yoritiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim OAVlarda terminlardan foydalanishda tizimlilik va aniqlik yetarli emas. Bu esa ayrim chalkashliklarga, ba'zida esa axborotning noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi. Shu bois, OAV tahririylarida maxsus terminologik siyosat ishlab chiqilishi, journalistlarning til madaniyati va terminologik savodxonligini oshirishga qaratilgan treninglar tashkil etilishi muhimdir.

Shuningdek, ilmiy va kasbiy terminlarni o'zlashtirishda me'yoriy hujjatlarga asoslangan yondashuv, tarjima va moslashtirishdagi uslubiy birliklar saqlanishi, yangi terminlarni ommaga tushunarli tarzda izohlab borish — zamonaviy OAV oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, terminlar bilan to'g'ri va samarali ishslash nafaqat til madaniyatini yuksaltiradi, balki OAVning professional obro'sini mustahkamlab, auditoriya ishonchini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов, А. А. Журналистика ва тил. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 192 б.
2. Саломова, Г. Терминлар ва уларнинг тил тизимидаги ўрни // Филология масалалари. – 2020. – № 3. – Б. 45–50.
3. Қаюмова, Н. ОАВ тилида терминологик бирликларнинг қўлланилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2022. – № 2. – Б. 88–92.
4. Хожиев, А. Лингвистика назариясига кириш. – Тошкент: Фан, 2002. – 256 б.
5. Мирвалиев, Д. Журналистикада тил ва услуб масалалари. – Тошкент: Миллий энциклопедия, 2008. – 160 б.
6. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 488 p.
7. Eco, U. Mouse or Rat? Translation as Negotiation. – London: Phoenix, 2004. – 176 p.
8. Allan, K. The Oxford Handbook of the History of Linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 894 p.
9. Yusuf, M. News Framing and Media Bias. – Chicago: University of Chicago Press, 2011. – 210 p.
10. Cambridge Dictionary of Journalism and Mass Communication [Online resource] – URL: <https://dictionary.cambridge.org>

